



RAQAMLI IQTISODIYOTDA ELEKTRON TIJORATNING RIVOJLANISHI

Ilmiy rahbar: Samatov Xurshid Ulmasjonovich

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Samarqand filiali '' Gumanitar va ijtimoiy fanlar'' kafedrası mudiri

Jabborov Abdulla Akbar o'g'li

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Samarqand filiali TTKT fakulteti RI 23-10 guruh talabasi

Elektron pochta manzili: abdullajabborov3@gmail.com

Annotatsiya: Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi zamonaviy biznes modellarining o'zgarishiga va elektron tijoratning jadal taraqqiy etishiga olib keldi. Ushbu maqolada elektron tijoratning asosiy yo'nalishlari, uning iqtisodiyotga ta'siri, texnologik innovatsiyalar bilan bog'liq jihatlari va kelajakdagi rivojlanish istiqbollari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari elektron tijoratning raqamli iqtisodiyotdagi o'rnini tushunishga yordam beradi hamda kelajakdagi rivojlanish strategiyalarini belgilashda asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, raqamli iqtisodiyot tarkibi, elektron tijorat, tijorat tashkilotlari, iste'molchilar, boshqa biznes modellari.

Abstract: The development of the digital economy has led to changes in modern business models and the rapid development of e-commerce. This article analyzes the main directions of e-commerce, its impact on the economy, aspects related to technological innovations, and prospects for future development. The



research results help to understand the role of e-commerce in the digital economy and serve as a basis for determining future development strategies.

Keywords: *digital economy, structure of digital economy, e-commerce, commercial organizations, consumers, other business models.*

Аннотация: *Развитие цифровой экономики привело к изменению современных бизнес-моделей и быстрому развитию электронной коммерции. В данной статье анализируются основные направления электронной коммерции, ее влияние на экономику, аспекты, связанные с технологическими инновациями, и перспективы будущего развития. Результаты исследования помогают понять роль электронной коммерции в цифровой экономике и служат основой для определения стратегий будущего развития.*

Ключевые слова: *цифровая экономика, структура цифровой экономики, электронная коммерция, коммерческие организации, потребители, другие бизнес-модели.*

Kirish

Hozirgi davrda raqamli iqtisodiyot va u bilan bog'liq bo'lgan bir qancha samarador texnologiyalar, shu jumladan, elektron tijorat va elektron biznes hayotimizga shiddat bilan kirib kelmoqda. Huddi shuning uchun ham, davlat va jamiyat taraqqiyotini yanada jadallashtirish maqsadida, respublikamiz rahbariyati bir qancha muhim qarorlarni qabul qildi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 15.06.2021-yildagi 373-son "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatning rivojlanish holatini reyting baholash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni, 05.10.2020-yildagi PF-



6079-son qarori, shuningdek, respublikamizda raqamli iqtisodiyotni davlat boshqaruv tizimiga tadbiq qilish uchun zamonaviy axborot texnologiyalarni jadal rivojlantirish bo'yicha sharoitlar yaratish, shuningdek, axborot havfsizligini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi 2018 yil 31 avgustda raqamli iqtisodiyotning maqsad va vazifalarini belgilab beradigan "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni joriy qilish va yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Qaror qabul qildi, hamda O'zR Prezidentining PQ-3832 03.07.2018 dagi "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlarini ham shu tadbirlar jumlasiga kiritish mumkin.

Yuqoridagi farmon va qarorlarning muvaffaqiyatli bajarilishi uchun raqamli iqtisodiyotning mohiyati nima va uning asosiy tushunchalari nimalardan iboratligini pishiq-puhta bilib olish talab qilinadi. Qisqa va lo'nda qilib aytganda, **raqamli iqtisodiyot**– bu jamiyat ne'matlarini ishlab chiqarish, taqsimlash va iste'mol qilish jarayonlarida elektron hamda axborot-kommunikatsion texnologiyalarini keng joriy etishni ko'zda tutadigan insonning xo'jalik faoliyatini tadqiq etuvchi sohadir.

Raqamli iqtisodiyot tarkibiga elektron hukumat, elektron biznes, elektron kommersiya, raqamli iqtisodiy munosabatlar, raqamli banklar, raqamli arxivlar, virtual korxonalar, kriptovalyutalar – elektron pullar, ijtimoiy tarmoqda marketing xizmatlaridan foydalanish, blokcheyn texnologiyasini joriy etish, korxonalarning raqamli "cho'ntak"lari, raqamli dividendlar va boshqalar kiradi.

Raqamli iqtisodiyot yo'nalishlari bigdata, sun'iy intellekt, blokcheyn, kvant texnologiyalari, ishlab chiqarish texnologiyalari, sanoat Interneti, robototexnika, simsiz aloqa, virtual reallik kabilardan iborat.

Elektron tijorat – bu kompyuter tarmoqlari yordamida amalga oshiriladigan barcha moliyaviy va savdo operatsiyalarini va shu kabi operatsiyalar



bilan bog'liq bo'lgan biznes jarayonlarini o'z ichiga olgan iqtisodiyot sohasi hisoblanadi . Elektron tijoratga quyidagilar kiradi:

- Elektron ma'lumot almashish (Electronics Data Interchange, EDI);
- Elektron kapital harakati (Electronic Funds Transfer, EFT);
- Elektron savdo (e-trade);
- Elektron pullar (e-cash);
- Elektron marketing (e-marketing);
- Elektron bank (e-banking);
- Elektron sug'urta xizmatlari (e-insurance).

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Raqamli iqtisodiyot va elektron tijoratning rivojlanishi ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan bo'lib, ushbu soha bo'yicha turli ilmiy qarashlar mavjud.

Y. Benkler "The Wealth of Networks: How Social Production Transforms Markets and Freedom" asarida raqamli iqtisodiyotning tarmoqlashgan tuzilmasini tahlil qilib, elektron tijorat orqali bozordagi munosabatlarning qanday o'zgarishini ko'rsatgan.[1] Uning fikricha, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari korxonalar va iste'molchilar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni soddalashtirib, yangi biznes imkoniyatlarini yuzaga keltirmoqda. S.S. Gulyamov va hamkorlari tomonidan yozilgan "Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalari" nomli ilmiy qo'llanmada esa elektron tijoratning xavfsizlik masalalari, blokcheyn texnologiyasining ahamiyati va tranzaksiya jarayonlarining samaradorligi haqida fikr yuritilgan. Tadqiqotda raqamli iqtisodiyotning rivojlanish bosqichlari va uning elektron savdo sohasiga ta'siri batafsil yoritilgan. [2]



M. Castells o‘zining "The Rise of the Network Society" nomli fundamental tadqiqotida raqamli iqtisodiyot va elektron tijoratning rivojlanishi global tarmoqlarning kengayishi bilan bog‘liq ekanligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, raqamli infratuzilmaning rivojlanishi biznes jarayonlarining avtomatlashtirilishiga va transchegaraviy savdoning kengayishiga olib kelmoqda.[3] D. Tapscott "The Digital Economy: Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence" asarida esa raqamli iqtisodiyotning asosiy xususiyatlari, jumladan, tarmoqlarning roli, intellektual kapitalning ahamiyati va elektron tijoratning korxonalar faoliyatiga ta’siri yoritilgan. U elektron tijoratning kompaniyalar va iste’molchilar o‘rtasidagi munosabatlarga qanday ta’sir qilishi borasida chuqur tahlil yuritgan. [4]

Ushbu adabiyotlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, raqamli iqtisodiyot elektron tijorat bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, zamonaviy texnologiyalar ushbu sohaning jadal rivojlanishiga asosiy turtki bo‘lib xizmat qilmoqda. Elektron tijoratning rivojlanishi esa biznes jarayonlarini optimallashtirish, tranzaksiyalarni tezlashtirish va iste’molchilar uchun qulayliklar yaratish kabi muhim omillar bilan bog‘liq.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotning metodologik asosi– bu O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi PQ–3724-son “Elektron tijoratni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori bilan joriy etilgan elektron tijoratning mahalliy subyektlari haqidagi ma’lumotlarni o‘zida jamlagan yagona elektron bank hisoblanadi.

Tahlil va natijalar

1960-yilda Amerikaning American Airlines va IBM kompaniyalari parvozlarni bron qilish uchun avtomatlashtirish tizimini yaratishga kirishdilar.



SABRE (Semi-Automatic Business Research Environment), ya'ni Yarim Avtomatik Tadqiqot Atrofmuhit tizimi oddiy yo'lovchilar uchun havo qatnovini yanada arzonlashtirib, ularga doimiy ravishda o'sib borayotgan parvozlar va parvoz tariflarini boshqarishda yordam bergan. O'rindiqlarni bron qilishda tariflarni hisoblash jarayonini avtomatlashtirish tufayli xizmatlar narxi pasayib, yo'lovchilar tashish hajmi ortgan. American Airlines va IBM o'rtasidagi qo'shma loyiha elektron tijoratning birinchi namunasidir.

1995-yilda Jeff Bezos Amazon.comni ishga tushirgan va birinchi 24 soatlik reklamasiz Radio HK va NetRadio radiostansiyalar ish boshlagan. eBay dasturchi Per Omidyar tomonidan AuctionWeb nomi bilan yaratilgan. To'rt yildan so'ng Xitoyda Alibaba Group tashkil etilgan. 1997-yilda 149 ming AQSh dollariga tashkil etilgan Business.com eCompaniesga 7,5 mln. dollarga sotilgan. Huddi shu davrda Napsterdan (peer-to-peer) dasturi ishga tushirilgan. ATG Stores Internet orqali uy bezak buyumlari savdosini boshlagan. 2001-yil dekabr oyida Alibaba.com rentabellikka erishgan. 2002-yilda eBay PayPal-ni 1,5 mlrd. dollarga sotib oldi. 2017-yilda dunyo bo'ylab elektron tijorat chakana savdosi 2,36 trln. dollarga yetgan va 2016-yilga nisbatan 14,8 foizga o'sgan. So'nggi 20 yilda Internet tarmog'idan foydalanuvchilar sonining jadal ko'payishi, ijtimoiy tarmoqlar va boshqa interfaol onlayn platformalar ta'sirining kuchayishi, elektron to'lov tizimlarining dinamik rivojlanishi va yetakchi bozor ishtirokchilarining elektron tijorat uchun yangi texnologik platformalarga o'tishi tufayli elektron tijorat bozori dinamik ravishda rivojlanmoqda.[5]

Elektron tijorat tasniflanishi:

1.Tijorat tashkilotlari:



- ✚ B2B (Business-to-Business) – “tijorat tashkilotlari o‘rtasidagi munosabatlar”;
- ✚ B2C (Business-to-Consumer) – “tijorat tashkiloti va iste’molchilar o‘rtasidagi munosabatlar”;
- ✚ B2E (Business-to-Employee) – “tijorat tashkilotlari va xodimlar (ishchilar) o‘rtasidagi munosabatlar”;
- ✚ B2G (Business-to-Government) – “tijorat tashkilotlari va hukumat o‘rtasidagi munosabatlar”;
- ✚ B2O (Business-to-Operator) – “tijorat tashkilotlari va aloqa operatori o‘rtasidagi munosabatlar”.

2.Iste’molchilar:

- ❖ C2A (Consumer-to-Administration) – “iste’molchilar va ma’muriyat o‘rtasidagi munosabatlar”;
- ❖ C2B (Consumer-to-business) – “iste’molchilar va tijorat tashkilotlari o‘rtasidagi munosabatlar”;
- ❖ C2C (Consumer-to Consumer) – “iste’molchilararo munosabatlar”.
- ❖ Ma’muriyat:
- ❖ A2A (Administration-to-Administration) – “ma’muriyatlar o‘rtasidagi munosabatlar”;
- ❖ A2B (Administration-to-Business) – “ma’muriyat va tijorat tashkilotlari o‘rtasidagi munosabatlar”;
- ❖ A2C (Administration-to-Consumer) – “ma’muriyat va iste’molchilar o‘rtasidagi munosabatlar”.

3.Boshqa biznes modellari:

- D2C (Decentralized-to-Consumer) – “iste’molchilar o‘rtasidagi Blockchain texnologiyasiga asoslangan nomarkazlashtirilgan munosabatlar”;



- G2B (Government-to-Business) – “hukumat va tijorat tashkilotlari o‘rtasidagi munosabatlar”. Institutsional doirada yirik korporatsiyalar va moliyaviy institutlar ichki va xalqaro biznesni qulaylashtirish uchun moliyaviy ma’lumotlar almashishda Internetdan foydalanadilar. Ma’lumotlarning yaxlitligi va xavfsizligi elektron tijorat uchun dolzarb muammolardan sanaladi;
- P2P (Peer-to-peer) – “shaxslar o‘rtasidagi munosabatlar”;
- An’anaviy elektron tijorat bilan bir qatorda, 2013-yil t-tijorat – mobil tijorat (m-commerce) atamalari ham qo‘llanilgan.

O‘zbekistonda elektron tijorat jadal rivojlanmoqda. Elektron tijorat subyektlari milliy reyestri – bu O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi PQ–3724-son “Elektron tijoratni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori bilan joriy etilgan elektron tijoratning mahalliy subyektlari haqidagi ma’lumotlarni o‘zida jamlagan yagona elektron bank hisoblanadi. Elektron tijorat subyektlari milliy reyestrining asosiy vazifalari va yo‘nalishlari quyidagilar:

- elektron tijorat ishtirokchilari to‘g‘risidagi yagona elektron bankni yaratish;
- elektron tijoratni joriy etish va rivojlanish holatini baholash, shu jumladan, axborot tizimlari va resurslarini joriy qilish samaradorligini o‘rganish;
- elektron tijoratni samarali rivojlantirish uchun amaldagi qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha maqsadli tahlil va takliflar tayyorlash.

Davlatimizning raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlari information texnologiyalar va elektron hujjat aylanishi sohasida bir qancha yangi



samarali yo'nalishlar hosil bo'lishiga olib keladi. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishiga asosiy turtkildan biri bo'lib, jahon miqyosidagi internet tizimining barqaror ishlashi va sifatli aloqaning mavjudligi sabab bo'ldi. Bu imkoniyatlar natijasida katta hajmdagi ma'lumotlarni almashinishni amalga oshirilishi hamda ularni saqlash va qayta ishlash mumkin bo'ldi.

Elektron tijorat mijozlarga jug'rofiy to'siqlarni yengib o'tish va ularga istalgan vaqtda, istalgan joyda tovarlarni sotib olish imkonini yaratadi. Onlayn va an'anaviy bozorlar biznes yuritishda turli xil strategiyalarga ega. An'anaviy chakana savdo do'konlari peshtaxtalari cheklanganligi sababli kamroq assortimentni taklif qiladilar. Onlayn chakana sotuvchilar aksariyat hollarda inventarizatsiya qilmaydi, lekin buyurtmalarni to'g'ridan-to'g'ri ishlab chiqaruvchiga yuboradilar. Narxlar strategiyasi an'anaviy va onlayn-do'konlar uchun ham farq qiladi. An'anaviy chakana sotuvchilar o'z narxlarini do'konga tashrif buyuruvchilar soni, sotib olishning o'rtacha narxi, amalga oshirilgan bitimlar soni va binolarni ijaraga olish narxlariga asoslanib o'rnatishadi. Onlayn do'konlar xaridlar sonini ham hisobga oladi, shuningdek, ular yetkazib berish tezligini ham baholay oladilar.

Xulosa va takliflar

Xulosa qilib aytganda, Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi elektron tijorat bilan uzviy bog'liq bo'lib, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ushbu sohaning jadal taraqqiyotiga turtki bermoqda. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, elektron tijorat biznes jarayonlarini avtomatlashtirish, tranzaksiyalar samaradorligini oshirish va iste'molchilar uchun qulayliklar yaratish imkonini beradi.



Elektron tijoratning rivojlanishi yirik korporatsiyalar, kichik va o'rta biznes subyektlari hamda davlat sektoriga ta'sir ko'rsatib, turli biznes-modellarni shakllantirdi. B2B, B2C, C2C kabi model va tizimlar elektron savdoning asosiy yo'nalishlari bo'lib, blokcheyn texnologiyalari xavfsizlik va ishonchlilikni ta'minlashda muhim rol o'ynamoqda.

Tarixiy nuqtayi nazardan, elektron tijoratning dastlabki shakllari 1960-yillardan boshlab shakllana boshlagan bo'lsa-da, 1990-yillardan boshlab Amazon, eBay, Alibaba kabi yirik kompaniyalar ushbu sohaning rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. Bugungi kunda global elektron tijorat bozori jadal sur'atlar bilan kengayib, raqamli to'lov tizimlari va onlayn platformalarning rivojlanishi ushbu tendensiyaning yanada kuchaytirilmoqda.

O'zbekistonda ham elektron tijorat jadal rivojlanmoqda. Mamlakatda elektron tijorat subyektlari milliy reyestrining tashkil etilishi ushbu sohani tartibga solish va rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Elektron tijoratni yanada rivojlantirish uchun huquqiy baza mustahkamlab borilmoqda, texnologik infratuzilma yangilanmoqda va ishtirokchilar uchun qulay sharoitlar yaratilmoqda.

Shunday qilib, elektron tijorat raqamli iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi bo'lib, u nafaqat biznes jarayonlarini optimallashtirish, balki global va mahalliy bozorlarda yangi imkoniyatlarni yaratish uchun ham keng imkoniyatlar taqdim etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Y. Benkler "The Wealth of Networks: How Social Production Transforms Markets and Freedom".
2. S.S. Gulyamov "Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalari" ilmiy qo'llanma.
3. M. Castells "The Rise of the Network Society".



4. D. Tapscott "The Digital Economy: Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence"
5. Moliyachi ma'lumotnomasi byulleteni: Guljahon Maxmudova: "Raqamli iqtisodiyot va unda elektron tijoratning o'rni" 3-5-b.
6. R.H. Ayupov. Raqamli iqtisodiyot va elektron tijoratda yangi texnologiyalar. O'quv qo'llanma. Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2020, 396 b.